



BADIY MATN ORQALI O'QUVCHILARNING O'QIB TUSHUNISHINI RIVOJLANTIRISH

Abdijamilova Mahfuzha Maxmudovna

*Nukus davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lif kafedrası" assistent
o'qituvchisi mahfuzha@1988*

Annnatotsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda badiy asarlar orqali o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy ommabop matnlardan foydalanish va tahlil qilish haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Matn, o'qib tushunish, bilim va ko'nikma, savodxonlik, badiy asar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilini o'zlashtirishida ularga berilayotgan topshiriqlar va matnlarning tushunarli va qiziqarli bo'lishi alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish jarayoni orqali og'zaki nutqi ham rivojlanib boradi, buning uchun esa albatta ularga o'quvchi tilidan aytiladigan ilmiy ommabop matnlar muhim o'rinn egallaydi. Ilmiy-ommabop va badiy asarlar tahlili o'quvchilarni asar mazmunini tushunish, asardagi voqeahodisalarni qalbdan his qilish, asarni so'z san'ati sifatida idrok etish, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay bilish, ularda mustaqil xulosaga kela olish ko'nikmasi hamda matndagi voqealarga duch kelganda o'zini emotSIONAL boshqara olishga tayyorlaydi. Shu tufayli boshlang'ich ta'lifda ilmiy-ommabop va badiy asarlar tahliliga ilmiy jihatdan yondashish talab etiladi [1]. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matn orqali o'qib tushunish ko'nikmalari asta-sekinlik bilan rivojlanib boradi, quyida berilgan matnlar o'quvchilarda har xil nutqiy vaziyatlarni o'zlashtirishi va vaziyatni to'g'ri anglab unga o'z fikrini mustaqil ayta olishga chorlaydi.

Mort haqiqatdan ham nimani xohlagan?

Keksa ona Xabbart katta shahardagi kvartirada yashar edi. U ko'p yillardan beri shu yerda edi. Uning yagona do'sti kichkina kuchugi Mort edi. Mort kechqurunlari ona Xabbartning tizzasida o'tirishni yoqtirar edi.

Bir kuni, Mort qichqiraverdi. Ona Xabbart unga suyak olish uchun javon yoniga keldi. Javonda hech narsa yo'q edi.

"Meni kechir Mort. Menda suyak yo'q" - dedi ona Xabbart.


Mort xirillab, ingrab yubordi. Ona Xabbart paltosini kiydi.

"Men senga suyak olib kelish uchun qassobga boraman. Yaxshi kuchuk bo'l".

Ona Xabbart zinadan tushib ketti. U tashqariga chiqib sovuq qotti va titradi. Shamol uning oqargan sochlarni to'zg'itib yubordi.

"Sizda itim uchun olib ketishga suyak bormi?" - so'radi ona Xabbart. Qassob boshini chayqadi.

"Kechirasiz"- menda suyak qolmadi. Ona Xabbart xo'rsindi. U tashqariga qaytib chiqdi. U bir ko'chadan o'tib, boshqasiga kirdi. Ona Xabbart non olishga bordi. O'sha





joyda non tugab qolgan edi. Keyin pitsa olishga bordi. Pitsa ham yo'q edi. Ona Xabbart yeryong'oq moyi olish uchun oziq-ovqat do'konida to'xtadi. Lekin do'konda yeryong'oq moyi ham yo'q edi. Ona Xabbart oxiri uyiga qaytdi. Mort uni likillagan dumi bilan eshik oldida kutib oldi.

"Suyak yo'q"- dedi ona Xabbart. Mort xirilladi.

"Non yo'q". Mort xirilladi.

"Pitsa yo'q". Mort xirilladi.

"Yong'oq yog'i yo'q". Mort xirilladi. Men hammasini olib kelishga harakat qildim. Mort sakradi va ona Xabbartning yuzini yaladi. U xohlagan narsa shu edi [2].

Savollar

1. Ona Xabbart qayerda yashar edi?

- a. Fermada yashardi.
- b. Chodirda yashardi.
- c. Oyda yashardi.
- d. kvartirada yashardi.

2. Hikoya boshlanishida Mort nima xohlaydi?

- a. Shirinlik
- b. Video o'yin
- c. Suyak
- d. Don

3. Ona Xabbart borgan joylarni ketma-ket yozing.

- ___ pitsa olishga bordi.
- ___ qassobga bordi.
- ___ novvoyxonaga bordi.
- ___ oziq-ovqat do'koniga bordi.

4. Ona Xabbart Xarid safaridan uyiga nima olib keldi?

5. Mort aslida nima xohlagan edi?

Chuvalashgan oyoqlar muammosi

Issiq kunda, bir guruh bolalar hovuz bo'yida o'tirgan edi. Ular biroz xursandchilik qilishni xohlar edi. Bolalar oyoq kiyimlarini yechib, oyog'ini hovuzga solishdi. Ular suvni bir-birlariga sachratishar edi. Birozdan so'ng ular zerikishdi. Shu payt yonlaridan bir chol o'tib ketdi. Bolalardan biri dedi: "Kelinglar, u bilan ozgina xursandchilik qilamiz". Hamma kulishdi va unga hiyla ishlatishni rejorashtirishdi.

Bolalar cholga dedi: "Iltimos, bu yerga keling. Bizda katta muammo bor". Chol bolalar yoniga keldi. U havotir olib, bolalarga yordam berishni xohladidi.

"Nima bo'ldi"- deb so'radi u.





- "Bizning oyoqlarimiz chalkashib qoldi. Biz kimning oyog'i qaysi ekanligini bila olmayapmiz. Bolalar bir-biriga qarab kuldil va ko'zini qisdi.

Chol dono, lekin mehribon ham edi. U bolalarning jiddiy emasligini tushindi va bolalarga jahlini chiqarmadi, ta'na ham qilmadi. Buning o'rniiga, ular bilan birga o'ynadi. Chol dedi:

- Bolalar bu jiddiy muammoga o'xshaydi, biroq o'ylaymanki men yordam bera olaman. Chol uzun tayoq topdi. Keyin hovuz yoniga yetib kelib, bolalarning oyoqlarini qitiqladi. Har bir oyog'i qitiqlangan bola kula boshladi. Bola shunchalik qattiq kuldiki, u suvdan dumalab chiqib ketdi. Birining ketidan boshqasi, bolalar va ularning oyoqlari hovuzdan birma-bir chiqardi.

- "Mana, men sizlarning muammoingizni hal qildim"- dedi dono kishi [3].

Savollar

1. Bolalar qayerda o'tirgan edi?

- a. Parkda
- b. Hovuz bo'yida
- c. Maktabda
- d. Uyida

2. Bolalar kimga hiyla qilishga urinishdi?

- a. Distlariga
- b. Qizga
- c. Cholga
- d. Hech kim

3. Bolalar cholga nima dedi?

- a. Ularning qo'llari chuvalashib qolishganini
- b. Zerikishganini
- c. Nimadir yo'qotganini
- d. Oyoqlari chuvalashib qolganini

Nega chol bolalar yoniga bordi?

Berilgan matn orqali o'quvchilarda vaziyatni tushunish, o'zini anglashi, ruhiy kechinmalarini boshqara olish holatlari yuzaga chiqadi. O'qib tushunish darajasi 3-4-sinf o'quvchilarida badiiy va ilmiy ommabop matnlar, orqali ularning savodxonlik ko'nikmalarini ham mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan o'qish, lug'at, imlo va yozish malakalari ham takomillashtirib boriladi. Xulosa qilib aytganda, o'qib tushunish ko'nikmasini, mukammal rivojlantirib borish uchun berilgan matnlarning o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi va yoshiba mos tarzda olinishi tavsiya etiladi.



**ADABIYOTLAR:**

1. X.G'ulomova., H.Bakiyeva. "Pedagogik ta'lim klasteri: muammo va yechimlar" xalqaro anjuman materiallari Chirchiq 2021y
2. Grade 1 Reading Comprehension Worksheet. Reading and Math for K-5 K5 Learning 2019 www.k5learning.com
3. Leavel 1 Reader K5 Learning 2019 www.k5learning.com

